

OILA QURISHNING TA’LIM SIFATIGA TA’SIRI .YOXUD YOSHLARNING TA’LIM OLIHIDA DAVLAT VA OTA-ONALARNING ROLI

Axtamova Zebo Asliddin qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi

+998 99 144 11 29

zeboasliddinovna@gmail.com

Anotatsiya: *Bu maqola jamiyatda yoshlar orasida dolzarb bo’lgan mavzulardan biri ta’lim olish va oila qurish masalasini o’z ichiga qamrab oladi va bu vaziyatni kengroq yoritib beradi. Unda jamiyat, ota-ona va yoshlar o’rtasidagi farqli mas’uliyat va vazifalar aytib o’tiladi.*

Tayanch so’zlar: *oila, ta’lim sifati, yoshlar ta’limi, davlat qo’llab quvvatlovi, ota-ona roli, talabalik davri, masofaviy ta’lim, ta’lim kredeti, ijtimoiy omil, shaxsiy rivojlanish, yosh oila, ta’lim imkoniyatlari, grand va stipendiyalar, ta’lim kechiktirishlari.*

Kirish: Bugungi kunda jamiyatimizda ko’plab yoshlarni o’ylantirayotgan dolzarb mavzulardan biri bu – oila qurishning ta’lim sifatiga ta’siri . Ya’ni oila qurish bu har bir insonning shaxsiy qarori ammo, shu bilan birga hayot qonuni hamdir. Darhaqiqat, oila qurish orqali ta’lim olayotgan yoshlar hayotida biroz qiyinchiliklar vujudga keladi. Masalan, oila mas’uliyati ortishi bilan bir qatorda bilim olishga bo’lgan e’tibor pasayadi, vaqt taqsimlashda ham birqancha muammolar yuzaga keladi. Qolaversa, qizlarda uy ro’zg’or ishlari ortadi, yangi uy, yangi hayot tarziga ko’nikish, oila va ota-onasidan uzoqda bo’lish, yigitlarda esa oilani ta’minlash va boshqarish kabi muammolar kuzatiladi. Bu esa o’z navbatida baholarning pasayishiga, manaviy va jismoniy charchoqqa sababchi bo’ladi. Bundan tashqari, farzandli bo’lgach bu mas’uliyat yana bir karra ortadi. Farzandiga, oilasiga o’qishi va ishiga vaqt sarflash bilan birga o’ziga e’tibori, o’z ustida ishlash, shaxsiy rivojlanish uchun vaqti kamayadi. Va bunday holat ruhiy o’zgarishlarga, ya’ni o’zidan qoniqmaslik yoki avvalgi paytlarini qumsash kabi tushunchalarni keltirib chiqarishi mumkin.

Binobarin, agar oilasida biror kelishmovchilik yoki tortishuv bo’lsa bu kayfiyatiga va ta’lim sifatiga o’z ta’sirini o’tkazadi. Yana ko’pgina hollarda oila qurgan qizlarda ta’lim chekovlari va kechiktirishlari ham kuzatiladi. Yigitlarda esa moliyaviy qiyinchiliklar va ruhiy bosim yuzaga kelishi mumkin.

Ammo shu bilan bir qatorda turmush qurishning ta’lim sifatiga ijobiy ta’siri ham yo’q emas albatta.

Jumladan, agar yigit ham qiz ham o’qisa bir-birini tushinish biri o’qiydigan, ikkinchisi o’qimaydigan oilalarga qaraganda osonroq bo’ladi. Chunki, ularning har ikkisi ayni jarayonda bo’lishadi. Qolaversa, bunday yoshlarning bekorchi narsalarga, har qanday chalg’ituvchi unsurlarga vaqti bo’lmaydi. Yoyingki, ularida mas’uliyat va sabrlilik hissi kuchliroq bo’ladi. Tengqurlariga nisbatan tajribaliroq va irodaliroq bo’lishadi.

Lekin shuni unutmaslik kerakki, oila va ta’limni baravar olib ketish qiyin. Ikkisida ham baravar muvaffaqiyat qozonish biroz mushkul. Shunday ekan malaka oshirish, ilmiy darajalarni

qo’lga kiritish istagidagi yoshlar oila qurish vaqti va yoshini biroz kechiktirishlari kerak. Ammo jamiyatimizda xalqimiz onggiga singgan o’zbekchilik tushunchasi “Tenggi chiqsa tekin ber” qabilida ish ko’rish ajablanarli hol emas. Ya’ni bugungi kunda yosh bölishiga qaramasdan ta’lim olish jarayonida oila qurgan yoshlar soni yetarlicha. Umuman olganda ta’lim olish bu faqatgina shaxsiy rivojlanish uchungina emas balki, mamlakat kelajagi uchun ham muhim omillardan biridir. Shunday ekan yoshlarning ta’limni ham oilani ham baravar olib ketishlari uchun davlatning ham, ota-onalarning hissalariga katta.

Davlatni rivojlantiradigan yagona kuch bu bilimli yoshlardir. Bugungi kunda ularning ta’lim darajasini oshirishlari uchun ko’plab imkoniyat va sharoitlar yaratilgan. Masalan, iqtidorli va yuqori ball bilan oliygohga qabul qilingan talabalar uchun davlat grandlari va qator nomdor stendiyalar tashkil etilgan. Uzoq viloyatdan kelgan talabalar uchun yotoqxonalar mavjud, ijarada turadiganlar uchun esa ijara to’lovining ma’lum qismi to’lab beriladi. Bundan tashqari, 5 ta tanlov va super kontrakt imkoniyatlari ham bor. Qolaversa, yosh onalar, nogironlar, bemorlar, surunkali kasalligi borlar va xohlovchilar uchun masofaviy ta’lim shakli ham ishlab chiqilgan. Kechki ta’lim shakli esa ham o’qib ham ishlaydiganlar, o’rta yoshlilar va ikkinchi mutaxassislik uchun o’qiydiganlar uchun qo’l keladi. Shu qatorda, xotin-qizlar ta’limini qo’llab-quvvatlash maqsadida magistratura to’lovining mamlakatimiz tomonidan qoplab berilishi, yoyingki, kontrakt shartnomasi asosida o’qiydiganlar uchun ta’lim kreditlarining mavjudligini keltirish mumkin. Yana sog’ligida va oilaviy sharoitida muammosi borlar uchun qo’shimcha grand va imtiyozlar ajratilgan.

Oliyogoh yoshlarni kadr sifatida yetishtiradigan, ularni mustaqil fikrlovchi shaxsga aylantiradigan maskandir. Bu jarayonda ota-ona va oila muhitining ham o’rni katta. Negaki, farzandning birinchi

O’qituvchisi uning ota-onasidir. Oila qurgandan so’ng esa turmush o’rtog’i, oila muhiti uni o’qishiga chiroyli ko’z bilan qarasa, qo’llab-quvvatlasa, sharoit yaratib bersa, tushunsa, moddiy va manaviy yordam bersa oila va ta’limni baravar olib ketish osonroq bo’ladi. Qolaversa, oliygoh davrida turmush qurish o’qimasdan oila qurishdan ko’ra yaxshiroqdir. Binobarin, ta’lim davrida farzandli bo’lsa bu gen orqali farzandini aqliy qobiliyatining shakllanishiga sabab bo’ladi. Yoyingki, yosh ota-onalar farzandlarini osonroq tushunishadi, negaki, yoshlari orasidagi tafovut kichik bo’ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, qachon va qay tarzda bo’lishidan qat’iy nazar talim olish, o’z ustida ishlash va shaxsiy rivojlanish nafaqat har bir insonning o’zi uchun balki, jamiyat uchun ham muhimdir. Chunki, mamlakat kelajagi bilimli yoshlardir, ularni esa bilimli ota-onalar tarbiyalashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI:

1. O’zbekiston Respublikasi “Ta’lim to’g’risida” Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori: “Yoshlarni qo’llab-quvvatlash va ularning ta’lim olishi uchun sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to’g’risida”. – Toshkent, 2021.
3. Hasanov H., Jo’rayev M. Pedagogika asoslari. – Toshkent: O’zbekiston Fan nashriyoti, 2019.